

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida, Samarqand viloyatida jami 1 655,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	1 655,5	112,1
<i>Shaharlar</i>		
Samarqand sh.	364,8	117,8
Kattaqo'rg'on sh.	31,7	108,8
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	113,8	104,0
Bulung'ur	49,5	100,9
Jomboy	66,0	101,0
Ishtixon	61,1	102,7
Kattaqo'rg'on	38,9	100,9
Qo'shrabot	81,4	129,8
Narpay	38,6	110,1
Payariq	129,5	109,4
Pastdarg'om	84,6	120,0
Paxtachi	37,0	102,0
Samarqand	98,3	113,9
Nurobod	23,0	113,5
Urgut	71,5	101,2
Toyloq	120,2	113,7
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	245,6	116,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 42,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 55,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 125,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,7 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	42,0	205,5	0,0
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>107,1</i>	<i>5,2 m.</i>	<i>0,0</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	289,9	705,3	44,5
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>102,0</i>	<i>2,5 m.</i>	<i>106,2</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	368,3	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>110,5</i>	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 247,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 151,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 15,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,8 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etgan holda 1 039,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 22,2 % ni yoki 368,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	247,5	1 039,7	368,3	151,6	106,1	110,5
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	22,5	311,2	31,1	137,8	114,9	137,4
Kattaqo'rg'on sh.	-	19,7	12,0	-	91,4	158,6
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	2,5	98,3	13,0	50,6	108,4	94,2
Bulung'ur	1,0	33,3	15,2	3,2 m.	85,4	155,9
Jomboy	1,1	52,5	12,4	172,4	92,5	156,5
Ishtixon	0,8	50,4	9,9	142,0	110,1	75,3
Kattaqo'rg'on	0,7	30,8	7,4	36,0	113,3	79,0
Qo'shrabot	50,5	20,9	10,0	137,6	108,3	148,7
Narpay	0,5	25,5	12,6	101,8	114,3	102,7
Payariq	0,6	119,1	9,8	18,8	114,0	91,0
Pastdarg'om	40,9	28,9	14,8	132,6	103,6	125,8
Paxtachi	0,8	23,7	12,5	10,0 m.	84,2	155,8
Samarqand	26,1	58,1	14,1	9,7 m.	80,6	122,5
Nurobod	2,5	8,5	12,0	2,8 m.	111,6	101,8
Urgut	0,9	55,8	14,8	2,1 m.	100,2	101,9
Toyloq	66,4	38,5	15,3	142,2	113,5	61,0
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	29,7	64,5	151,4	180,0	113,5	110,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Paxtachi tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 10,0 m.), Ishtixon tumanida (142,0 %) va Qo'shrabot tumani (137,6 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 114,9 %), Narpay tumanida (114,3 %) va Toyloq tumanida (113,5 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

